

"AVESTO" – FRIDRIX NITSHE TALQINIDA

Narzulla Jo'rayev

Siyosiy fanlar doktori, professor

Abstract

The great German philosopher Friedrich Nissche was an exponent of the philosophy of life, cultural scientist and philologist, and his work had a great impact on modern philosophy. The original content of Nietzsche's works has not lost its relevance even today. In his views, he assigns a first-class place to the human problem, to reconsidering the moral values of human life. The issues of human spiritual development, maturity, human will are at the center of his philosophy. This article talks about reconsidering the moral values of human life and revealing the ways leading to human spiritual perfection through the image of the philosopher Zoroastrian.

Key words

Avesta, human perfection, spiritual evolution, ethics, values, perfect man, spiritual will, ego, Zoroastrianism, dialectics, consciousness.

Nitshe faylasuf sifatida, aytish mumkinki, tafakkur olamiga axloqiy, ma'naviy va ruhiy jihatdan inson imkoniyatlari chegarasidan chiqib ketgan, undan yuqori turgan ongni mujassamlashtirgan Zardusht bilan o'zini tenglashtiradi. Ya'ni, inson tarixida ilk marta kayhoniy qarashlarni, ilohiy g'oyalarni ilgari surgan Zardusht bilan hamfikir bo'ladi. Qalb iztiroblarini, iddaolarini, hayotiy va falsafiy qarashlarini u orqali ifodalaydi. Zardusht Nitshe uchun g'oya tashuvchi, fikrni ehtirosli va g'oyat betakror tuyg'ular orqali bayon etuvchi vositaga aylanadi. Boshqacha qilib aytganda, ushbu asarda chuqur psixologik holat bilan mantiqiy asos hayratlanarli darajada uyg'unlashgan. Nitshe iztiroblarini, qalb zarbalarini, titroqlarini, besaranjom, beorom, behalovat tuyg'ular dramasini favqulodda kuchli ruhiy kechinmalar orqali ifoda etadi.

"Zardo'sht tavallosi" kitobida hayot falsafasi, inson tushunchasi, kishilik hayotining yorug' va zulmat tomonlari, ziddiyat va iztiroblar o'z aksini topgan. "Avesto" g'oyalarini chuqur o'zlashtirgan, ayni paytda ana shu g'oyalarda odam va olam mohiyatini ko'ra bilgan, unda diniy va dunyoviy qarashlar uyg'unlashuvini anglagan Nitshe o'z falsafiy qarashlarini, ilmiy g'oyalari va munosabatlarini Zardusht orqali betakror ohanglarda ifodalashga erishadi.

Asar uslubiyatida Zardusht bilan Nitshening tengligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Darhaqiqat, muallif ilohiy shaxs bilan o'zini tenglashtiradi, o'zaro muloqotda bo'ladi, ko'p hollarda Zardusht nomidan gapiradi, Zardusht g'oyalarini o'zining qalb kechinmalari bilan sintezlashtiradi. Garchi, ular tug'ilgan makon turli mintaqalarda joylashgan, juda ulkan, mahobatli tarixiy davr ularni ajratib turgan bo'lsa-da (ular yashagan davr qariyb uch ming yillik masofa bilan farqlanadi), qarashlar uyg'unligi favqulodda hodisa sifatida, ayni paytda o'ta tabiiy holatda yuzaga keladi. Bu shu darajada tabiiy, musaffo va go'zalki, uni bir-biridan ajratishga intilish yoki bir-biridan ayro holda tushunish jiddiy xatolikka olib keladi. Asarda muallif Zardusht bilan zamondoshday, yaqin do'stday yonma-yon turib gaplashadi. O'zining g'oyalarini to'g'ridan-to'g'ri Zardusht orqali tushuntirishga harakat qiladi va bunga o'ta tabiiylik bilan erishadi.

Zardusht falsafasi yaxlit insoniyat tafakkurining majmuasidir. U diniy toat-ibodat va taqvo doirasidan chiqib, qomusiy xarakterga ega bo'lgan ilohiy xayolot, kayhoniy fikrat tizimiga aylangan. Natijada real zaminda, konkret hayotda insoniyat qarashlari va tafakkur tarzini o'zida mujassam etib, dunyoviy falsafa, dunyoviy tafakkur maqomiga ega bo'ldi. Aslini olganda, Zardusht falsafasining hayotiyligi ham, mahobati ham, o'lmasligi ham ana shunda.

Nitshening taxayyul olami keng, fikrati cheksiz. U o'zi yashab turgan olamni yaxlitligicha, bus-butunligicha, barcha shodmonligi-yu sitamlari bilan birga g'oyatda chuqur his etadi, anglaydi. Endi uning "narigi dunyochilar" olamini ko'rgisi keladi, chora izlaydi va Zardusht orqali bunga erishadi: "Bir kuni Zardusht ham barcha narigi dunyochilar kabi o'z xayollarini odamning narigi dunyosiga qaratdi. O'shanda menga dunyo azob chekayotgan va abgor bo'lgan Xudoning a'moli bo'lib tuyuldi", – deydi u (Nitshe F. Zardo'sht tavallosi. - T.: Yangi asr avlodi, 2007. 24-bet). G'oyat pokiza qalb va yorqin ruhiyat kuchi bilan muallif boqiy dunyodagi odamlar ahvolidan xabardor bo'ladi, ularni ko'z oldiga keltiradi, azoblanayotganlaridan azoblanadi. Jannat gashtini surayotganlardan ko'ngli taskin topadi.

Afsuski, azob-uqubatli dunyo unga kengroq tuyuladi va foniy dunyo uning ko'ziga "azob chekayotgan va abgor bo'lgan Xudoning a'moli bo'lib tuyuladi". Nega bu dunyo abgor? Nega inson o'z hayotini o'zi ba'zan bilmay, ba'zan bilib turib, ongli ravishda azoblarga to'ldiradi? Aslini olganda Xudo inson hayotiga mazmun berish, rohat-farog'atli turmush qurish uchun aql, zakovat, tuyg'u bergan. Biroq, odam lahzalik farog'at qo'yida butun umrini muammolarga to'ldirib tashlaydi. Masalaning boshqa jihati ham bor. Tub mohiyati bilan qaraganda insoniyat hayotida muammo bo'lishi mumkin emas. Agar u o'zini va bir-birini to'g'ri tushunsa! Odamlarning bir-birini tushunmasligi dunyoni abgor, hayotni ezgin qiladi. Bu yakka tartibda odamlarning o'zaro munosabatidan tortib global ma'noda butun insoniyat, olam-u odam taqdiri bilan bog'liq bo'lgan umumsayyoraviy muammolarni qamrab oladi. Oxir-oqibatda Nitshening ideal odam falsafasi, barkamol insonni ko'rish orzusi, har tomonlama yetuk odam bilan muloqotda bo'lish istagi iztirobga aylanadi.

"Yaxshilik va yomonlik, shodlig-u azob, men-u sen – bari menga Yaratganning ko'z

o'ngidagi rango-rang dud bo'lib ko'rinadi. Yaratgan o'zidan o'z nazirini evirishni istadi va o'shanda u olamni bino qildi" (O'sha manba. 24-bet).

Demak, yaxshilik va yomonlik, muhabbat va nafrat, ishonch va ishonchsizlik, sadoqat va xiyonat, ezgulik va yovuzlik olamning ramzi, yaratgan uning evrilishini xohlaydi. O'zi bino qilgan olamning benuqson va ko'rkam bo'lishini istaydi. Bu bevosita inson olamining qay darajadiligiga bog'liq. Qalban go'zal inson go'zallik yaratadi. Ezgulik bilan yashaydigan kishi ezgulik hukmronlik qilgan turmush tarzini yo'lga qo'yadi. Munofiqlar, xiyonatkorlar, jinoyatchilar, diyonatsizlar esa uning teskarisidir!

Nitshe inson, hayot, dunyo atrofida fikr yuritar ekan, ruhiy xayolot va fikratdan hayotiy xulosalarga o'tadi, real voqelikka munosabat bildiradi va shunday deydi:

"Mangu ziddiyatning aksi va notamom timsol, mangu notamom bu dunyo – uning notamom yaratuvchisi uchun mastona shodiyona, - bir mahallar dunyo menga shunday bo'lib tuyuldi" (O'sha manba. 26-bet).

Ziddiyatlarga to'la olam, nuqsonlardan holi bo'lmagan timsol – odam. U mangu notamom, yetuk bo'lolmaydi, ideal insonga aylana olmaydi. Demak, insoniylik hayoti ham mukammal emas. Chunki, bu ziddiyatli, notamom olamning, hamisha bir kam dunyoning bosh muallifi, ijodkori – notamom Inson! Uning aqli doirasida yaratilgan, zakovati va ma'naviy imkoniyatlari mahsuli bo'lgan, inson ichki olamining timsoli sifatidagi mangu notamom dunyo bu! Bu qadimiy va mo'ysafid ma'vo shunday edi, bundan keyin ham shunday bo'ladi. Zotan, notamom hayot, notamom odamlar cheklangan tafakkuri, kemtik, mayib-majruh olami, siniq va ozurda ruhiyati mahsuli. Hayot mazmuni, uning mohiyati bevosita inson aql-zakovati bilan bog'liq. Ayni ana shu insoniyat hayotining ideal darajada bo'lmasligi barkamol bo'lmagan odamlar uchun qaysidir ma'noda shodiyonadir. Chunki fikrlamay yashash, aqlni ishlatmay umrguzaronlik qilish oson tuyuladi ularga. Darhaqiqat, inson hamisha yengil yashashga, mehnat qilib topishdan ko'ra mo'may daromad topishga, barcha maqsadlariga osonlik bilan erishishga moyil jonzot. Nitshe ham, Zardusht ham shunday o'ylaydi va cheksiz iztirob chekadi.

Narigi dunyochilar zikrida davom etar ekan, Nitshe o'zida kuchli optimistik ruhni his etadi, iroda quvvati oshadi, yuksak ma'naviy kuch endi unga hayotga rag'bat, kelajakka ishonch, yangidan-yangi umid kurtaklarini ochadi va

"Nima bo'ldi o'zi, birodarlarim? Men azob chekayotgan o'zligimni yengdim, men o'zligimning xoki turobimni toqqa olib chiqdim, o'zimga ortiq nurafshonroq alanga topdim.

Qarang endi! Sharpa mendan uzoqlashib ketdi!", - deydi (O'sha manba. 24-25 betlar).

Ezgin xayollar, ko'ngilga tahdid soluvchi qora sharpalar ortda qoldi! Nitshe o'zida kuchli irodani his etdi, o'zini-o'zi yengdi. Orzu-umidlar tog'iga chiqdi, nurafshon hayotga yorqin nigoh bilan qaray boshladi. Bu muallifning ichki kechinmalarigina emas, dunyoda qanchaki odam bo'lsa, barchasining qalbida ana shunday his, ana shunday tuyg'u mavjud. Ularda ichki iroda va o'zini-o'zi boshqarishga qodir bo'lgan ruh bor. Faqat u har kimda har

xil. Biologik, fiziologik va intellektual imkoniyat doirasida kimdadir ko'proq, kimdadir kamroq, kimdadir qudratli, kimdadir zaifroq. Hamma gap mudroq iroda va ruhni qo'zg'ata olishda, uyg'ota bilishda, rivojlantira olishda, xolos. Umuman olganda, inson o'zining tabiiy, biologik, fiziologik va ma'naviy tuzilishi jihatidan murakkab tizim. Har bir odam alohida olam. U o'zini-o'zi boshqara olishi, yo'naltira bilishi, rivojlantirib, kamol toptirish rag'batiga ega bo'lishi lozim. Har kim o'z inon-ixtiyorining hokimi o'zi bo'lsin. O'zini-o'zi rag'batlantirsin, ruhlantirsin, nojo'ya xatti-harakatlar qilganda o'ziga-o'zi tanbeh bera olsin, o'zini-o'zi jazolay bilsin va kechira olsin.

Nitshening inson falsafasida qalb va ruhiyat kategoriyalari alohida mavqega ega. Qalb har bir insonning yaxlit va bir butun alohida olami. U har bir individning betakror, faqat o'zigagina xos bo'lgan, o'zining "Men"iga ega bo'lgan yaxlit olam. Ruh esa uni boshqaradi, yo'naltiradi. Bu xulosa nafaqat Zardusht falsafasida, balki barcha dunyoviy dinlarda turli shakllarda o'z ifodasini topgan. Zotan, taqvoning turi, ibodatning shakli xilma-xil bo'lsa-da, Alloh yagona! Nitshe falsafasi Zardusht orqali ana shunday maqomga ega. Boshqacha qilib aytganda, Zardusht salavoti, duolari, tavallosi Nitshe qalbi orqali Nitsheyona munojot bo'lib yangraydi. Bu munojot o'ta jarangdor, o'ta fayzli, tarovatli, chuqur mazmunga va xulosalarga ega bo'lgan g'oya. Ayni paytda biroz miskin, tushkun, g'amgin falsafadir. Ana shu jihatdan qaraganda uni ayrim faylasuflar tushkunlikka, pessimizmga berilganlikda ayblashadi. Aslida esa, ushbu tushkunlik, g'amginlik tagida Nitshening g'oyatda kuchli, qudratli irodasi, yorqin va shiddatli ruhiyati aniq sezilib turadi. Boshqacha qilib aytganda, uning qalbida g'oyat kuchli, qudratli optimizm, achchiq iztirob, baland ruh og'riqli dard bilan vulqonga aylanadi.

"Zardusht bemorlarga shafqatli. Chindan ham ularning bu kabi tasalli izlashlari-yu bundoq ko'rnamakliklaridan ozurda emas. Mayli, ular sog'ayuvchi-yu yengib o'tuvchilar bo'la qolsinlar. Va mayliga o'zlariga oliy jism yarata qolsinlar" (O'sha manba. 26-bet).

Zardusht qanday, qaysi toifadagi bemorlarga shafqatli? Nitshe nimalardan iztirob chekayapti? U kimlarga muruvvatli? Albatta, jismoniy bemorlar har qanday mehr-shafqatga, muruvvatga munosib. Biroq, hayotda jismoniy bemorlardan ko'ra axloqiy va ma'naviy nogiron, ruhiyati va irodasi zaif odamlar ko'proq. Ayni "ko'rnamaklik" ana shunday bemorlarga xos! Ularning qalbida ichki bir quvvat bilan sog'ayuvchi ruhiy va ma'naviy kuch yo'q. Ammo, Zardusht ham, Nitshe ham ularning "sog'ayib" ketishini, ma'naviy yetuk, barkamol va faol inson – barcha chirkinliklardan "sog'ayuvchi-yu yengib o'tuvchi" bo'lishini istaydi.

Zardusht va Nitshening ham ilohiy, ham hayotiy falsafasi bu! Zardusht bemorlarga shafqatli, mehribon, rahmdildir. Biroq, inson har qanday sharoitda ham inson-da. Ba'zan mehr-u shafqatni bilib-bilmay suiiste'mol etishi, ko'rnamaklik qilishi mumkin. Ammo buyuklik – buyuklikdir. U faqat mehr, shafqat, bag'rikenglik, cheksiz muruvvat va saxovat sohibidir. Ko'rnamaklikdan, munofiqlikdan, umuman, barcha illatlardan ustun turadigan maqom. Nitshe bu yerda real hayot bilan diniy tafakkurni uyg'unlashtiradi, reallashtiradi, hayotiyligi va ulug'vorligini isbotlaydi.

Bu dunyo qanchalik ulug'vor va mahobatli, rang-barang va jozibali, purhikmat va

donishmand bo'lmasin, u shunchalik g'arib va notavon, ojiz va notamomdir. Chunki notavon va notamom dunyoning ijodkori notavon va notamom insondir. Darhaqiqat, u o'z hayotini, turmush tarzini o'z aqli doirasida quradi. Undan ortig'ini tasavvur qilolmaydi, tushunolmaydi. Olamni, hayot mohiyatini intellektual imkoniyati doirasida angelaydi. Zotan, hayot, borliq, olam oldida inson aqli, zakovati va tafakkuri hamisha cheklangan bo'ladi. Bu insonning ham, uning aqli va zakovatining mahsuli bo'lgan dunyoning ham fojiasidir.

"Yaxshisi, birodarlarim, sog'lom jism sasini tinglangiz: u rostgo'yroq va musafforoq ovozdur. Barkamol va to'rtburchak jism, sog'lom jism haq va sof so'zlaydi: u tuproqning ma'nosi haqida hikoya qiladi... Bu Zardusht tavallosi". (O'sha manba. 27-bet)

Bu Zardusht tavallosigina emas. Ayni paytda Nitshe munojoti ham! Bu Nitshe qalbining tub- tubidan ingranib chiqayotgan nido, inson ruhiyatini poklovga da'vat hamdir. Bunda allomaning butun iztiroblari-yu sevinchlari, quvonchlari-yu tashvishlari, shodliklari-yu sitamlari yaxlit jamlangan. Eng muhimi ushbu g'oyat ziddiyatli, bo'hronli va iztirobli tuyg'ularda butun insoniyat taqdiri, uning buguni va istiqboli bilan bog'liq bo'lgan global axloqiy masalalar ifodalangan.

Sharq falsafiy tafakkuri, xususan, Zardusht ta'limoti va qadimgi Hind falsafasida inson to'rt unsurdan iborat. Boshqacha qilib aytganda, shu to'rt unsurdan yaralgan. Bu bir-biriga zid to'rt unsur – suv, havo, tuproq, olov to'rtburchak shaklini tashkil etadi va insonning mutlaq ziddiyatli olamidan dalolat beradi. To'rt unsur – tuproq, suv, havo va olov yetuklik timsolidir. Xuddi yilning to'rt fasli mukammal bo'lsa, tabiat, borliq mukammal bo'lgani kabi. Ana shu to'rt unsur birlashgan nuqta – to'rt burchak jism, barkamol vujud, benuqson ma'vo. U rost va to'g'ri so'zlaydi, pokiza xayolot va musaffo fikrat olami – Oliy odam timsolini gavdalantiradi.

Nitshening bayon uslubiyatida, fikrni ifodalash shaklida Yevropalik donishmandlar uslubidan ko'ra keskin va yorqin o'ziga xoslik bor. Birinchidan, u har qanday og'ir, zalvorli fikrni, aqlni ostin-ustun qilib yuboradigan gapni jo'shqin hissiyot va qaynoq ehtiros bilan yo'g'rilgan holda bayon etadi. Ikkinchidan, u bevosita va to'g'ridan-to'g'ri Sharq fenomeniga murojaat qilyapti, uning olamida yashayapti. O'zini o'zi tanlagan, ixlos qo'ygan Zardusht timsolida ko'rmoqda. Shuning uchun Nitshening uslubi "Avesto" matnlarining uslubiga juda o'xshaydi, yaqin turadi. Nitshega "Avesto"ning ta'siri shu darajada kuchli bo'lganki, hatto fikrni bayon etish uslublari ham bir-biriga o'xshash. Ya'ni, har bir gap ko'pincha alohida satrdan boshlanadi. Har bir gap to'liq, bo'liq, aniq fikrga yo'naltirilgan, aniq xulosani ifodalagan yaxlit tizim. Ikkinchi gap o'z o'rnida yangi satr boshidan boshlanadi. Albatta, bu gap ham o'z yukiga, fikriy salmog'iga, to'liq mag'ziga ega. Ular faqat bir-birini to'ldiradi, xolos. Har bir gap alohida urg'u, alohida ta'kid va, nihoyat, alohida ta'sir kuchiga ega. Jumlar og'ir va mag'izli, shijoatli va da'vatkor, jozibali va ta'sirchan. Ayni paytda insonni chuqur o'ylashga, fikrlashga, aqlning yangidan-yangi qirralarini ochishga majbur etadigan chaqiriq. Bu betakror uslub.

Nitshe falsafasida ong, insonning o'zini-o'zi anglashi masalasi alohida mavqega ega. Uning inson falsafasida inson mohiyatini tushunish, mavjudot sifatidagi qadriyatini belgilash

va bu qadriyatni har bir individning o'zi qadriyatga aylantira olish yoki olmasligi masalasi chuqur tahlil qilinadi. Zardusht tavallosi orqali Nitshening ichki nidosi, qalb hayqirig'i ayni ana shu ziddiyatli, murakkab, rang-barang olam fenomenini yaratishga qaratilgan. Bu esa insonshunoslikda o'ziga xos ilmiy-falsafiy, badiiy-mantiqiy, ilohiy-dunyoviy qarashlar sintezi sifatida yuzaga keldi. Bir qaraganda, "Zardusht tavallosi" asari sof ilmiy fundamental tadqiqotga o'xshaydi. Ikkinchi tomondan, uni o'qiganingiz sari chuqur falsafiy va mantiqiy fikrlarga asoslangan badiiy asarga guvoh bo'lasiz. Har qanday holatda ham Nitshe Zardusht timsoli orqali o'zining ichki kechinmalarini, ilmiy-nazariy xulosalarini, insonshunoslik borasidagi fundamental konsepsiyasini yaratadi. Asarda ilmiy betakrorlik va badiiy mo'jizakorlik uyg'unlashib ketgan.

"Sening vujudingdagi ong sening oliy hikmatingdan ko'ra kattaroqdir. Va yana kim bilsin, sening vujudingga sening oliy hikmating nimaga ham kerak?" (O'sha manba. 28-bet).

Bir-biriga zid, bir-birini inkor qiladigan fikr ilgari surilyapti. Aslida esa, falsafaning mohiyati fikrlar qarama-qarshiligidan, g'oyalar zidligidan, bir-birini inkor qilishdan iborat. Aks holda, hamma faylasuflar bir xil fikrlagan bo'lishardi. Nitshe esa mazkur g'oyasi bilan inson mohiyatining yangi qirrasini ochyapti. Ong bo'lmasa inson hech narsa emas. Insonni inson qilib turgan narsa ongdir, degan g'oyani ilgari suriyapti. Yana o'zini-o'zi inkor qilib, oliy hikmat, muruvvat va himmat, ong bo'lmasa, kerak bo'larmikan, degan savolni ham o'rtaga tashlaydi. Bu bilan esa o'z-o'zidan barcha fazilatlaringiz, barcha imkoniyatlaringiz ong orqali namoyon bo'ladi, ong orqali o'zingning qudratingizni ko'rsatasiz. Ong bo'lmagan taqdirda bu fazilatlaringiz hech narsaga yaramaydi, aniqrog'i, bunday fazilatlarga erisholmaysiz, demoqchi.

Nitshening "Zardusht tavallosi" asarini so'z san'ati va falsafiy tafakkurning noyob mo'jizasi deyish mumkin. G'oyat jozibali, kishi qalbini junbushga keltiradigan, ayni paytda o'ta mayin va nafis so'z kutilmaganda g'oyat og'ir fikr va mahobatli g'oyani o'zida mujassam etadi. Ayni ana shunday uslub mavjud ilmiy, boshqacha qilib aytganda, G'arb va umuman dunyo mumtoz falsafasining tan olingan, e'tirof etilgan tamoyillarini inkor etadi. Butunlay yangi, g'oyat jozibali, haroratli, sharqona qarashlarga asoslangan, Sharq falsafiy tafakkuri yutuqlarini mukammal o'zlashtirgan tarzda mo'jizakor uslubni kashf etadi. Aks holda Zardusht so'zlari tabiiy chiqmagan bo'lar edi. Chunki uni yevropacha gapirtirish o'ta qo'pollikka va soxtalikka olib kelar edi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Nitshe Sharq falsafasining katta bilimdoni. Sharq tafakkur tarzini chuqur o'rgangan, unga e'tiqod bilan qaragan va keng targ'ib etgan dunyoviy allomalardan biri. Uning har bir asari o'z davrida ham, hozir ham hayratomuz g'oyalari, keskin farq qiluvchi yondashuvlari va betakror ifoda usuli bilan jahon jamoatchiligi diqqatini o'ziga tortib kelmoqda. "Zardusht tavallosi" kitobi esa, ana shu hayratomuz ilmiy-ijodiy faoliyatning cho'qqisi hisoblanadi.